

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MAMUROVA MUSHTARI MAXAMMADJANOVNA

**MAQSUD QORIYEV ROMANLARIDA USLUB VA XARAKTER
MUAMMOSI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Mamurova Mushtari Maxammadjanovna

Maqsud Qoriyev romanlarida uslub va xarakter muammosi.....3

Mamurova Mushtari Makhammadjanovna

The problem of style and character in the novels of Maksud Koriyev.....25

Мамурова Муштари Махаммаджановна

Проблема стиля и характера в романах Максуда Кориева.....47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works

Список опубликованных работ.....52

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MAMUROVA MUSHTARI MAXAMMADJANOVNA

**MAQSUD QORIYEV ROMANLARIDA USLUB VA XARAKTER
MUAMMOSI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2022.2.PhD/Fil2448 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasining (www.fdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sabirdinov Akbar Gofurovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rasulova Umida Yo'ldosh qizi
filologiya fanlari doktori, professor

Karimov Halim Urinovich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «2» 10 soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-57-82; faks: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (572 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-71-28.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «20» 09 kuni tarqatildi.
(2025-yil «20» 09 dagi 47 - raqamli reestr bayonnomasi)



G.Z. Rozikova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, filologiya fanlari doktori, professor

M.T. Abdupattoyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori,
professor

Z.A. Rahimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida tarixiy romanlarda davr va qahramonlar tasvirida haqqoniylik, badiiy to‘qima, tarixiylik, zamonaviylik masalalarini yoritish, shu orqali uslub hamda xarakter talqinidagi ijodkor mahorati, qiyofasini o‘rganish muhim hisoblanadi. Turli davrga mansub xalq qahramonlari, ulug‘ allomalar hayoti, faoliyati xolis va haqqoniy yoritilgan tarixiy asarlar esa muayyan davrning ijtimoiy manzarasini yorqin aks ettirishda, shuningdek, tarixiy siymolar haqida asl haqiqatni oydinlashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida romanchilikda uslubiy o‘ziga xoslik, an’ana, tarixiy voqelik, tarixiy qahramon, xarakterlar tasviri, badiiyat, syujet, kompozitsiya masalalarini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish, ijodiy ta’sir hamda individuallik tadqiqiga bo‘lgan e’tibor, ayniqsa, kuchaymoqda. Tarixiy qahramon, alloma qiyofasining turli ijodkorlar tomonidan yaratilishidagi mushtarak va farqli jihatlarni qiyoslash esa nafaqat muayyan tarixiy shaxs hamda davr haqida xolis xulosa chiqarish, balki turli ijodkorlar uslubi va mahoratidagi turfalikni nazariy jihatdan yoritish zaruratini yuzaga keltiradi. O‘zbek romanchiligida ijodiy ta’sir, uslubiy o‘ziga xoslik, xarakter, badiiy mahorat, janr takomili, ijodiy tajriba adabiyotshunoslikning o‘rganilishi zarur bo‘lgan ilmiy-nazariy masalalari hisoblanadi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligida XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari o‘zbek romannavislari ijodini yangicha yondashuvlar asosida o‘rganish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bu, o‘z navbatida, ijodkor dunyoqarashi, ijodiy laboratoriyasi, asarlarining ta’sir manbalari, individual uslubi, xarakter yaratish mahoratiga xos muhim xususiyatlarni chuqur o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi. Zero, “Adabiyot xalqning yuragi, ma’naviyati ko‘zguasi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak”¹. Qator tarixiy romanlari bilan o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutgan Maqsud Qoriyevning betakror uslubi, xarakterlar talqinidagi badiiy mahorati sirlarini tadqiq etish dolzarb, o‘rganilishi zarur bo‘lgan masalalardan hisoblanadi. U o‘z asarlarida o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, sharq mumtoz adabiyoti hamda jahon romanchiligining yetuk an’analarini sintezlashtirdi hamda janr imkoniyatlaridan samarali foydalandi. Ana shu jihat Maqsud Qoriyev romanlarida uslub va xarakter masalasini o‘rganish, tarixiy haqiqat va badiiy haqiqat muammolariga oydinlik kiritishni taqozo etib, tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruratini belgilaydi.

Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий боғида барпо этилган Адиблар хиббонининг очилишида сўзлаган нутқи // Халқ сўзи. – 2020 йил 21 май. – № 106 (7608).

PQ-3775-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Qaror, 2019-yil 20-oktabrdagi O’RQ-576-sonli “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to’g’risida”gi Qonun hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo’nalishlarga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishda innovatsion g’oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo’llari” ustuvor yo’nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o’rganilganlik darajasi. O’zbek romanining janr xususiyatlari, taraqqiyot bosqichlari, ularda individual uslub masalalari I.Sulton, M.Qo’shjonov, O.Sharafiddinov, S.Mamajonov, N.Karimov, U.Normatov, S.Mirvaliyev, A.Rasulov, H.Boltaboyev, A.Rahimov, D.To’rayev, H.Umurov, D.Quronov, Y.Solijonov, A.Sabirdinov, Z.Pardayeva, Sh.Doniyarova, Sh.To’ychiyeva, Z.Rahimov² kabi adabiyotshunoslar tomonidan o’rganilgan. Shuningdek, romanchilikda tarixiylik, badiiyat, til masalalari F.G.Gegel, X.Ortega-i-Gasset, R.Yakobson, Y.N.Tinyanov, B.A.Eyxenbaum, M.M.Baxtin, M.B.Xrapchenko, D.Zatonskiy, Y.M.Melitenskiy, V.V.Kojinov, V.V.Vinogradov, A.N.Veselovskiy, Y.Borev singari olimlar³ tomonidan jahon adabiyotshunosligida keng yoritilgan.

² Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986; Қўшжонов М. Ўзбек романчилигининг ривожланиш босқичлари ва жанр хусусиятлари // Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1991. – Б.299-382; Қўшжонов М. Ойбек маҳорати. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1965; Қўшжонов М. Моҳият ва бадийат. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977; Шарафиддинов О. Биринчи мўъжиза. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979; Шарафиддинов О. Оламнинг қалби. – Тошкент: Маънавият, 2014; Шарафиддинов О. Танланган асарлар. – Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2019; Мамажонов С. Услугу жилolari. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972; Каримов Н. Ойбек. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985; Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008; Каримов Н. Уч буюк сиймо: Абдулла Қодирий. Чўлпон. Ойбек. – Тошкент: Mumtoz so’z, 2019; Норматов У. Ижодкорнинг дахлсиз дунёси. – Тошкент: Mumtoz so’z, 2008; Норматов У. Қодирий мўъжизаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010; Норматов У. Танланган асарлар. – Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси ва таҳририяти, 2021; Мирвалиев С. Ўзбек романи. – Тошкент: Фан, 1969; Мирвалиев С. Роман ва замон. – Тошкент: Фан, 1983; Мирвалиев С. Абдулла Қодирий. – Тошкент: Фан, 2004; Расулов А. Янги замон – янги қахрамон. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978; Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2007; Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб. – Тошкент: Фан, 1992; Раҳимов А. Ўзбек романи поэтикаси (сюжет ва конфликт): Филол.фан.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 1993; Тўраев Д. Давр ва ижод масъулияти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004; Умuroв Ҳ. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Шарк, 2002; Солижонов Й. Ҳақиқатнинг синчков кўзлари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009; Солижонов Й. Кўзгудаги ҳаёт. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2013; Солижонов Й. Мўъжизалар сеҳри. – Тошкент: Adib, 2013; Сабирдинов А. Маънавият ва маърифат чашмалари. – Тошкент: Akademnashr, 2016; Пардаева З. Ҳозирги ўзбек романчилигининг тараққиёт тамойиллари: Филол.фан.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2003; Дониёрова Ш. Истиқлол даври ўзбек романларида миллий руҳ ва қахрамон муаммоси: Филол.фан.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2012; Тўйчиева Ш. Чўлпоннинг “Кеча ва кундуз” романида ижодкор дунёкараши ва бадий услуб муаммолари: Филол.фан.номз. ...дисс. – Тошкент, 2006; Rahimov Z. Odil Yoqubov tarixiy romanlari poetikasi: Filol.fan.d-ri(DSc) ...diss.avtoref. – Farg’ona, 2023.

³ Гегель Ф.Г. Эстетика. Биринчи жилд. Рус тилидан М.Абдуллаев таржимаси. – Фарғона, 2011; Хосе Ортега-и-Гассет. Мысли о романе // В ин: Эстетика. Философия культуры. – М.: Искусство, 1991; Яковсон Р. Работы по поэтике. – М.: Прогресс, 1987; Эйхенбаум Б.А., Тынянов Ю.Н. Русская проза. – Л.: Академия, 1926; Эйхенбаум Б.А. О прозе. О поэзии. – М.: Худ. литер., 1986; Бахтин М.М. Эпос и роман //

O‘zbek tarixiy romanlarida xarakter va qahramon, ruhiyat va badiiyat masalalari A.Rahimov, H.Karimov, G.Imomova, Sh.Isayeva, A.Nosirov, G‘.Murodov, U.Jo‘raqulov, A.Alimbekov, I.Yoqubov, Q.Yo‘lchiyev, U.Rasulova, M.Qo‘chqorova, O.Akbarov kabi olimlar⁴ ishlarida tadqiq etilgan.

O‘zbek adabiyotshunosligida Maqsud Qoriyev romanlari F.Xajiyeva, A.Allambergenovlarning ilmiy tadqiqotlarida talqin etilgan. Adabiyotshunos F.Xajiyevaning dissertatsiyasida biografik roman janri xususiyatlari amerikalik adib Irving Stouning “Iztiroblar va quvonchlar”, “Hayot ishtiyoqi” asarlari, o‘zbek yozuvchilari Maqsud Qoriyevning “Ibn Sino” va Nodir Normatovning “Ro‘zi Chorining so‘nggi vasiyati” romanlari bilan qiyosan yoritilgan bo‘lsa, A.Allambergenov tadqiqotida Maqsud Qoriyevning “Ibn Sino”, “G‘aznaviylar” romanlaridagi Beruniy obrazi talqini yoritib berilgan⁵.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, o‘zbek adabiyotshunosligida Maqsud Qoriyev romanlarida uslub va xarakter, qahramon va ruhiyat, syujet va kompozitsion xususiyatlar, tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima masalalari monografik yo‘sinda keng va atroflicha o‘rganilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Poetika muammolari” yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari o‘zbek adabiyotida Maqsud Qoriyev tarixiy romanlari ahamiyatini tahlil etish orqali qahramon va xarakter yaratishdagi yozuvchi uslubi, badiiy mahoratiga xos jihatlarni yoritish hamda bu davr romanchiligi taraqqiyot tendensiyalarini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Вопросы литературы. – 1970. – №1. – С.95-122; Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Сов. писатель, 1975; Затонский Д. Искусство романа и XX век. – М.: Худ. литер., 1973; Мелетинский Е.М. Введение в историческую поэтику эпоса и романа. – М.: Наука, 1986; Кожин В.В. Происхождение романа. – М.: Сов.писатель, 1963; Виноградов В.В. О языке художественной прозы. – М.: Наука, 1980; Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989; Теория литературы (Литературный процесс) Под ред. Ю.Борева. – Т. IV. – М.: ИМЛИ РАН, 2001.

⁴ Рахимов А. Роман санъати. – Фарғона: Фарғона, 2015; Каримов Ҳ. Кечаги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70-80-йиллар). – Тошкент: Yangi nashr, 2018; Каримов Ҳ. Пиримқул Қодиров ижодий олами. – Тошкент: Tafakkur, 2020; Имомова Г. Типик миллий характерлар яратишда бадий нутқнинг роли: Филол.фан.номз. ...дисс. – Тошкент, 1993; Исаева Ш. Ўзбек тарихий романларида характер рухиятини тасвирлаш усуллари: Филол.фан.номз. ...дисс. – Тошкент, 2001; Носиров А. О. Ёқубов романлари поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2012; Мurodov Ф. Тарихий романинг муштараклик ва ўзига хосликлар уйғунлиги муаммолари: Филол.фан.д-ри(DSc) ...дисс. – Тошкент, 2018; Мurodov Ф., Темирова Д. Тарихий романда сюжет муаммоси. – Тошкент: Фан, 2008; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2015; Алимбеков А. Юлдузнинг беш қирраси. – Тошкент: O‘qituvchi, 2020; Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. Монография. – Тошкент: Nurafshon business, 2021; Йўлчиев Қ. Нурали Қобилнинг прозаик маҳорати. Монография. – Тошкент: Marifat bitiklari, 2021; Rasulova U. Hozirgi adabiy jarayon. Darslik. – Toshkent: Akademnashr, 2023; Қўчқорова М. Ҳозирги ўзбек насрида бадий шартлилик. – Тошкент: Фан, 2020; Акбаров О. Комил Икромов ижодида тарихийлик ва замонавийлик: Филол.фан.номз. ...дисс. – Тошкент, 1997.

⁵ Хажиева Ф. Биографик роман жанри хусусиятлари. (И.Стоун, М.Қориев ва Н.Норматов асарлари кийсида): Филол.фан.б.фалс.док.(PhD) ...дисс. – Тошкент, 2018; Алламбергенов А. Ўзбек адабиётида Абу Райхон Беруний образи талқинларининг кийсий таҳлили: Филол.фан.б.фалс.док.(PhD) ...дисс.автореф. – Тошкент, 2022.

Maqsud Qoriyev romanlari ta'sir manbalarini o'rganish orqali davr va xarakterlar talqinidagi o'zbek xalq og'zaki ijodi, sharq mumtoz adabiyoti hamda jahon adabiyotining o'rni va ahamiyatini ochib berish;

Maqsud Qoriyevning tarixiy haqiqat va badiiy to'qima, turli tasviriy vosita va ifodalardan foydalanib betakror xarakterlar yaratishdagi uslubiga xos jihatlarni yoritish;

o'zbek tarixiy roman janri rivojida Maqsud Qoriyev asarlarining ahamiyatini yozuvchi estetik niyati, dunyoqarashi, yaratgan qahramonlari talqini bilan mushtarak jihatlari asosida aniqlash;

Maqsud Qoriyev ijodiga xos hayotiy mantiq, tarixiy haqiqat, davrning keng manzarasini yarata bilish, badiiy detal, portret va peyzajdan foydalanib syujet izchilligi va kompozitsion yaxlitlikni ta'minlash mahoratini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Maqsud Qoriyevning "Spitamen", "Ibn Sino", "G'aznaviylar" romanlari tanlangan. Ba'zi o'rinlarda qiyoslash maqsadida Vasiliy Yanning "Qo'rg'on uzra gulxanlar", Yavdat Ilyasovning "Sug'diyona" romanlariga ham murojaat qilingan.

Tadqiqotning predmetini Maqsud Qoriyevning tarixiy romanlarida uslub va xarakter, tarixiy voqelik, tarixiy qahramon va personajlar talqini, syujet va kompozitsiya, roman janriga xos badiiyat masalasini yoritish orqali XX–XXI asr o'zbek romanchiligidagi o'rnini ko'rsatib berish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tarixiy, biografik, psixologik tahlil usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

XX–XXI asrlar o'zbek romanchiligi taraqqiyotida Maqsud Qoriyev ijodining muhim o'rni o'zbek xalq og'zaki ijodidagi maqol, ertak, afsona, rivoyatlardan, sharq mumtoz adabiyotidagi Qur'on oyatlari, hadislar, hikmatlardan, jahon romanchiligiga xos tarixiy shaxs va qahramon, tarixiy davr hamda manzaralar yaratishdagi realistik uslub bilan bog'liq an'analardan ta'sirlanib, ularni ijodiy davom ettirganligida ekani aniqlangan;

yozuvchining mahorati buyuk alloma va sarkardalar faoliyatini tarixiy faktlar asosida xolis, haqqoniy aks ettirishida, qahramon va personajlar nutqi hamda kechinmalari tasvirlarida badiiy to'qimadan, davr kartinasi, turli qiyofa va xarakterlar talqinida tarixiy manbalardan, asar hayotiyliigi va ta'sirchanligida o'xshatish, taqqos, qiyos kabi badiiy vositalardan samarali foydalanishida ko'rinishi isbotlangan;

Spitamen, Iskandar (Aleksandr Makedonskiy), Mahmud G'aznaviy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi tarixiy shaxslar faoliyati, qiyofa va xakteri tasviridagi yangicha yondashuv hamda xolis tasvirlar, personajlar talqinidagi tarixiy haqiqat va badiiy to'qima Maqsud Qoriyev romanlarida ijodiy niyat va g'oya, falsafiy fikr va adabiy-estetik qarashlar ifodasida o'ziga xos vosita ekanligi asoslangan;

Maqsud Qoriyev tarixiy romanlaridagi uslubiy o'ziga xoslik syujetning xronikali va retrospektiv turlariga murojaat qilib, voqelikning shiddatli rivoji yuzaga chiqarilishida, davrning keng kartinasi, qahramonlar ichki dunyosi tasvirining chuqur yoritilishida, badiiy portret, peyzaj va detallar nafaqat personajlar ichki dunyosi, kechinmalari, balki muallif niyatini ifodalashga ham xizmat qilganligida, dialogik va monologik nutqlarda maqol hamda matallardan

samarali foydalanib, asarning tarbiyaviy-axloqiy, badiiy-estetik qimmatini, hayotiyliigi va ta'sirchanligini oshirishga erishganligida ekanligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ijodiy ta'sir manbalari: o'zbek xalq og'zaki ijodi, sharq mumtoz adabiyoti va jahon romanchiligining Maqsud Qoriyev asarlari yaratilishidagi muhim o'rni, yozuvchi dunyoqarashi, izlanishlar ko'lamining kengligi haqida tasavvur berishi asoslangan;

Maqsud Qoriyevning romanchilikdagi individual uslubi va xarakterlar yaratishdagi o'ziga xosligi tarixiy haqiqatni xolis yoritish, badiiy to'qimada hayotiylikka, mantiqqa tayanish ekanligi orqali aniqlangan;

yozuvchi tarixiy romanlari biografik ("Ibn Sino", "G'aznaviylar"), qahramonlik ("Spitamen") romanlari janr xususiyatlari takomiliga, taraqqiyotiga hissa bo'lib qo'shilganligi badiiy mahorat qirralarini yoritish orqali dalillangan;

buyuk sarkarda va allomalar hayoti, faoliyati bilan bog'liq tarixiy voqealar, davr manzaralari tasvirida portret, peyzaj, badiiy tasvir vositalarining o'rni va ahamiyati turli ijodkorlar asarlari hamda tarixiy manbalar bilan qiyosan tahlil etish orqali o'rganish zarurligi ko'rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi obyektga yondashuv va qo'llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga muvofiqligi, ilmiy muammoning o'rganilish chegaralarining aniq belgilanganligi, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, tanlangan badiiy manbalarning tadqiqot predmetiga mosligi, chiqarilgan xulosalarning qiyosiy-tarixiy, biografik, psixologik tasniflash, tavsiflash vositasida olib borilganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, tahlil jarayonida o'zbek mumtoz adabiyoti hamda yangi o'zbek adabiyoti fanlari tabiatidan kelib chiqilganligi, natijalarning vakolatli muassasalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, chiqarilgan xulosalardan zamonaviy o'zbek nasri taraqqiyot bosqichlari va tamoyillarini aniqlashda, badiiy ijodda uslub va xarakter munosabatlarini o'rganishda, XX–XXI asr adabiyoti badiiy-estetik ta'sir manbalari hamda badiiyat, tarixiy qahramon va voqelik, syujet va kompozitsion yaxlitlik masalalarini yoritishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'zbek romanchiligi nazariy asoslarini yaratishga xizmat qilishida ko'rinadi. Shuningdek, dissertatsiya natijalari "XX asr o'zbek adabiyoti", "Adabiyotshunoslik nazariyasi", "Hozirgi adabiy jarayon", "O'zbek adabiy tanqidi", "Badiiy tahlil asoslari" fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalar, o'zbek nasriga oid maxsus kurs, seminar tashkil qilishda, oliy ta'lim muassasalari, o'rta maxsus va umumta'lim maktablari uchun o'quv adabiyotlari tayyorlashda manba bo'lib xizmat qilish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maqsud Qoriyev romanlarida uslub va xarakter muammosi tadqiqi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

XX–XXI asrlar o'zbek romanchiligi taraqqiyotida Maqsud Qoriyev ijodining muhim o'rni o'zbek xalq og'zaki ijodidagi maqol, ertak, afsona, rivoyatlardan, sharq mumtoz adabiyotidagi Qur'on oyatlari, hadislar, hikmatlardan, jahon romanchiligiga xos tarixiy shaxs va qahramon, tarixiy davr hamda manzaralar yaratishdagi realistlik uslub bilan bog'liq an'analardan ta'sirlanib, ularni ijodiy davom ettirganligida ekani aniqlangan xulosalardan O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida FA-F1-G003-raqamli “Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so‘z yasalishi” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 28-yanvardagi 166/1-son ma‘lumotnomasi). Natijada Maqsud Qoriyev romanlari tili, asarlarida o‘rinli foydalanilgan so‘z va iboralarning ahamiyatini o‘rganish jarayonida ularga davr va xarakterlar talqinidagi o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, sharq mumtoz adabiyoti hamda jahon adabiyoti na‘munalarining ta‘siri borligidan, yozuvchining tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimadan, turli tasviriy vosita va ifodalardan foydalanib betakror xarakterlar yaratishdagi o‘ziga xos jihatlaridan foydalanilgan;

Spitamen, Iskandar (Aleksandr Makedonskiy), Mahmud G‘aznaviy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi tarixiy shaxslar faoliyati, qiyofa va xarakteri tasviridagi yangicha yondashuv hamda xolis tasvirlar, personajlar talqinidagi tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima Maqsud Qoriyev romanlarida ijodiy niyat va g‘oya, falsafiy fikr va adabiy-estetik qarashlar ifodasida o‘ziga xos vosita ekanligi asoslangan tadqiqot natijalaridan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida FA-A1-G007-raqamli “Qoraqalpoq naql va maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 28-maydag 167/1-son ma‘lumotnomasi). Natijada loyihada tahlilga tortilgan naqlar va maqollarning mazmuni Maqsud Qoriyev romanlari misolida tahlil etilgan;

Maqsud Qoriyev tarixiy romanlaridagi uslubiy o‘ziga xoslik syujetning xronikali va retrospektiv turlariga murojaat qilib, voqelikning shiddatli rivoji yuzaga chiqarilishida, davrning keng kartinasi, qahramonlar ichki dunyosi tasvirining chuqur yoritilishida, badiiy portret, peyzaj va detallar nafaqat personajlar ichki dunyosi, kechinmalari, balki muallif niyatini ifodalashga ham xizmat qilganligida, dialogik va monologik nutqlarda maqol hamda matallardan samarali foydalanib, asarning tarbiyaviy-axloqiy, badiiy-estetik qimmatini, hayotiyliigi va ta‘sirchanligini oshirishga erishganligida ekanligi dalillangan materiallardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali DM tarkibidagi “Foreign languages” telekanalining “Good morning, Uzbekistan!”, “English club” ko‘rsatuvlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali Davlat muassasasining 2024-yil 4-noyabrdagi 02-25-1162-son ma‘lumotnomasi). Natijada “Spitamen”, “Ibn Sino” va “Gaznaviylar” romanlariga doir ilmiy-amaliy va qiyosiy tahlillar, fikr mulohazalar, jumladan, tadqiqot ishidagi ilmiy xulosalar, mavzu tahliliga oid taklif va tavsiyalardan ko‘rsatuvning adabiyotga doir qismida keng foydalanilgan, ssenariylar ma‘lum darajada ilmiy leksika bilan boyigan;

yo‘zuvchining mahorati buyuk alloma va sarkardalar faoliyatini tarixiy faktlar asosida xolis, haqqoniy aks ettirishida, qahramon va personajlar nutqi hamda kechinmalari tasvirlarida badiiy to‘qimadan, davr kartinasi, turli qiyofa va xarakterlar talqinida tarixiy manbalardan, asar hayotiyliigi va ta‘sirchanligida o‘xshatish, taqqos, qiyos kabi badiiy vositalardan samarali foydalanishida

ko‘rinishi isbotlangan ilmiy natija va xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Mahalla” teleradiokanalining 2024-yilda efirga uzatilgan “Bir asar tarixi” eshittirishi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Mahalla” teleradiokanali Davlat muassasasining 2024-yil 11-dekabrda 20-son ma’lumotnomasi). Natijada Maqsud Qoriyev qalamiga mansub “Ibn Sino” romanining yaratilish tarixi, Ibn Sino shaxsi, adibning ushbu asarida ifodalangan tarixiy va to‘qima obrazlarga xos xususiyatlar to‘g‘risida berilgan nazariy xulosalar eshittirish mazmunini boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 7 ta xalqaro va 5 ta respublika anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ish nashr etilgan bo‘lib, shundan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shulardan 4 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Tadqiqotning hajmi 144 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Maqsud Qoriyev tarixiy romanlari manbalari, uslubi va badiiyati**” deb nomlangan birinchi bobi uch faslni o‘z ichiga oladi. Bobda tarixiy roman janriga xos jihatlar P.Qodirov⁶, Y.Parandovskiy⁷, A.Rasulov⁸, A.Makarenko⁹ fikrlariga tayangan holda yoritilgan. Bobning “*Ta’sir manbalari*” nomli birinchi faslida Maqsud Qoriyevning “Spitamen” romanida aks etgan tarixiy voqelik, ta’sir manbalari, ijodiy ta’sir va badiiy mahorat masalalari tahlil etiladi.

Maqsud Qoriyevning “Spitamen” romanida miloddan avvalgi 329-327-yillarda grek-makedon istilochilariga qarshi O‘rta Osiyoning sug‘d, massaget, dax, skif, sak kabi o‘nlab qabila hamda xalqlari birlashib, jasur yo‘lboshchi Spitamen – Spanta (Sheppe-Temen) boshchiligida olib borgan qahramonona kurashlari, jasur sarkardaning xiyonat tufayli yakun topgan alamli taqdiri badiiy tasvir etilgan.

Maqsud Qoriyev romandagi Spitamen obrazini yaratishda V.Yanning “Qo‘rg‘on uzra gulxanlar”, Y.Ilyosovning “So‘g‘diyona” romanlari, M.Alining

⁶ Кодиров П. Мукамаллик – мутлоқ ҳақиқат // Умид Али. Кўнгилга сайр (адабий ижод мавзусидаги суҳбатлар). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б.128.

⁷ Парандовский Я. Сўз кимёси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. – Б.330.

⁸ Расулов У. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2007. – Б.65.

⁹ Макаренко А.С. Школа жизни, труда, воспитания. – Н.Новгород: НГПУ им. К.Минина, 2014. – С.133.

“Spitamen” turkum she’rlari, Isfandiyorning “Qasam” povesti, M.Osimning “Spitamen va Aleksandr” tarixiy hikoyasi bilan tanishgan. Shuningdek, sharq mumtoz adabiyotidagi Aleksandr Makedonskiyning ideallashgan obrazi aks etgan xamsanavislar, Kvant Kursiy Ruf, Plutarx, Aristotel, Kallisfen, Arrian, Ptolemey, Strabon, Diodor kabi yunon olimlari asarlaridan ta’sirlangan.

Roman voqealari So‘g‘diyona poytaxti Maroqand shahri tasviri bilan boshlanadi. Yozuvchi asarga turli tabaqadagi odamlarni jamlagan, turfa kasb va qiyofadagi kishilarni uyg‘unlashtirgan bozor tasvirini olib kiradi. Shu bozor yonida o‘z hikoyalari, qiziq rivoyatlari bilan mashhur bo‘lgan, ba’zilar “Dariyod devona”, ba’zilar esa “Dariyod donishmand” deb ataguvchi “oppoq soqolli, sochlari bo‘yniga qadar tushgan bir basavlad mo‘ysafid” barchani o‘z og‘ziga qaratgan”¹⁰. Dariyodning “Avesto”dan aytgan hikoyalari xalqni yurt ozodligi uchun kurashga otlantiradi. Dariyod – xalq dahosi abadiyligini o‘zida jamlagan obraz. Asarda Dariyod bilan Iskandar o‘rtasidagi suhbat dunyoning o‘tkinchiligi, inson o‘z taqdirini oldindan bila olmasligi to‘g‘risida boradi. Ushbu tasvir Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhod va Xusrav dialogini ham bir qadar yodga soladi.

Iskandarning tanqidga nisbatan tajovuzkorligi, tanqidni qabul qilolmaydigan shaxs bo‘lgani Vasiliy Yanning “Qo‘rg‘on uzra gulxanlar”¹¹ romanidagi Iskandarning Kallisfen bilan bo‘lib o‘tgan mojarosi orqali tahlil etilgan. Mard va jasur Kallisfen haqgo‘yligi uchun Iskandar buyrug‘i bilan qafasdagi sher oldiga tashlanadi.

Yozuvchi ijodining yuksalishida, badiiy takomilga erishuvda mavzuga oid, davr va qahramon tasviri hamda talqiniga xos manbalar bilan tanishish darajasi, ulardan samarali foydalana bilish mahorati muhim o‘rin tutadi. Dissertatsiyada U.To‘ychiyev¹²ning tarixiy asarda tarixiylik mezonlari, Q.Yo‘lchiyev¹³ning ijodkorning tarixiy faktlarga munosabati haqidagi fikrlari berilgan.

M.Qoriyev “G‘aznaviyalar” romanidagi Sabuqtegin bobo “Qur’oni Karim”ning “Qasas” surasidagi Fir’avn va Qorunning ayanchli halokati sababi haqidagi nabiralarga o‘giti, ayniqsa, ibratli ekanligi ishda keltirilgan¹⁴. Darhaqiqat, “Qur’oni karim” matnida yigirma sakkizinchi tartibda kelgan bu sura Makka suralaridan bo‘lib, sakson sakkiz oyatni tashkil etadi¹⁵. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk”¹⁶ asaridagi Alp Erto‘nga (Afrosiyob) haqidagi qo‘shiqlarning Sabuqtegin bobo tomonidan berilishi ham yozuvchi ta’sirlanishining mahsuli ekanligi tadqiqotda misol asosida ko‘rsatilgan¹⁷.

¹⁰ Қориев М. Спитамен. Тарихий роман. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б.7.

¹¹ Ян В. Қўрғон узра гулханлар. Роман. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.

¹² Туйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – Б.430.

¹³ Йўлчиев Қ. Нурани Қобилнинг прозаик маҳорати. – Тошкент: Ма’рифат битиклари, 2021. – Б.206.

¹⁴ Қориев М. Танланган асарлар. III жилд. Ғазнавийлар. Тарихий роман. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2006. – Б.22.

¹⁵ Қуръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – Б.277-284.

¹⁶ Маҳмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2017. – Б.31.

¹⁷ Қориев М. Танланган асарлар. III жилд. Ғазнавийлар.Тарихий роман. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2006. – Б.75.

Yozuvchi “Ibn Sino”, “G‘aznaviylar” tarixiy romanlarini yaratishda tojik yozuvchisi Sotim Ulug‘zodaning “Firdavsiy”¹⁸ romani bilan tanish bo‘lganligi, undan ta’sirlangan holda ulardagi ba’zi lavhalarini yaratganligi yoritilgan. Fasl so‘ngida Maqsud Qoriyevning ta’sir manbalaridan foydalanish mahoratiga xos to‘rt jihat ko‘rsatib beriladi.

Bobning “*Uslubiy o‘ziga xoslik*” deb nomlangan ikkinchi fasli tarixiy asarda yozuvchi uslubi, uning tarixiy fakt va materiallardan foydalanish mahorati hamda ularga qanday yondashishiga bog‘liqligi yoritilgan. Dissertatsiyada A.Fitrat¹⁹, U.To‘ychiyev²⁰, D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva²¹ning uslubning yozuvchi ijodidagi o‘rni haqidagi fikrlari keltirilgan.

Maqsud Qoriyevning o‘ziga xos uslubi uning tarixiy mavzular talqinida qahramon va personajlarning o‘z davri farzandi sifatida aks ettirishida, davr voqeligini tarixiy haqiqatga uyg‘un tasvirlashida, badiiy detallarning o‘rinli qo‘llanishiga alohida e’tibor berishida ko‘rinadi. Shuningdek, shahar arxitekturasi, bozor kartinalarini tasvirlash orqali davrning yaxlit manzarasini o‘quvchi ko‘z oldiga keltirish yozuvchi uslubining yana bir jihati bo‘lib, qahramonlar va personajlarning ichki hamda tashqi portretlarini ba’zan batafsil, ba’zan bir chizgi bilan gavdalantirish orqali uning xarakteriga xos jihatlarni ko‘rsatib beradi. Peyzaj tasvirlari ma’lum ma’noda davrning maishiy holati, urug‘ va qabilalarning, xalqlarning yashash tarzini ham aks ettirishga xizmat qiladi.

Yozuvchining “Ibn Sino” (1995) romani voqealari kitobxonni buyuk alloma yashagan melodiy 980 – 1037-yillarga olib kiradi. Uning nafaqat tabobatdan, balki astronomiya, geometriya, kimyo kabi fanlardan ham yaxshigina xabardorligi, yuksak saviyada she’rlar ijod etganligi keng tasvirlanadi.

Romanning dastlabki satrlari jome’ masjidida ro‘parasidagi kitob rastasi tasviri bilan boshlanadi²². Yozuvchi uslubiga xos jihat tasvirni batafsil, keng ko‘lamda, izchil olib borish orqali haqqoniy davr manzarasini yaratishi, voqealar zanjirini personajlar tasviri orqali bog‘lashida namoyon bo‘ladi. Abdusamat kitobfurush va uning kitob rastasi orqali ilm gullab-yashnagan qadimgi Buxoro tasvirlansa, Ma’sud Buxoriyning qandolatpazlik rastasi tasviri orqali to‘kinlik barq urgan davr kartinasi yaratiladi. Maqsud Qoriyev uslubi uchun xos jihat – tasvir obyektining bor tafsiloti bilan izchil, batafsil tasvirlash vositasida mukammal manzarani yaratish, kitobxonni tasvirlanayotgan voqelikka olib kirish, ta’sirchan ifoda, hayotiy va izchil talqinning yuzaga kelishiga xizmat qildirishdir.

Yozuvchi uslubi uchun yana bir jihat voqealarni bir-biriga zanjir kabi bog‘lay olishidir. Kitob detali Ibn Sino va Sanam o‘rtasidagi muhabbatni yuzaga keltiruvchi vosita – zanjir halqasi vazifasini o‘taydi. Asarda Dovud obrazi orqali garchand umrini behuda sovurib bo‘lsa-da, o‘z ahdidan qaytmaydigan fidoyi ajdodlar siymosini, shuningdek, birdan boyib ketishni “xom xayol” qilgan shaxs fojiasini yaratishga erishadi.

¹⁸ Сотим Улуғзода. Фирдавсий. Роман. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б.173.

¹⁹ Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. V жилдлик. IV жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б.17.

²⁰ Туйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – Б.370.

²¹ Куронов Д., Мамажонова З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б.339.

²² Қориев М. Ибн Сино.Тарихий роман. – Тошкент: “Шарк” нашриёт-матбаа концернининг бош тахририяти, 1995. – Б.5.

Romanda Qora Turk obrazi bor murakkabligi bilan tasvirlanadi. Retrospeksiya vositasida uning o'tmishi hikoya qilib beriladi. Asarda Qora Turk to'g'rilik, halollik, sadoqatni ulug'lovchi shaxs sifatida ko'zga tashlanadi. Ammo romanda Oysha taqdiri qanday kechgani, hayoti qanday yakunlanganligi tasvirlanmay, tugallanmay qolgan. Bu asar kamchiligidir.

Maqsud Qoriyev romanlarida uslubiy o'ziga xosliklar tarixiy asardagi qahramon va personajlar nutqining eskirgan hamda tarixiy so'zlardan xoli, ommabop bo'lishiga ahamiyat berishda; qahramonlar ichki dunyosini portret va peyzaj tasvirlari vositasida uyg'un yoritishga erishishda; maishiy turar-joy va shahar kartinalari tasviridagi mayda tafsilot va izchillikka e'tibor bergan holda davrning yaxlit manzarasini yaratishda; qahramon va personajlar dunyoqarashi va xarakteriga xos jihatlarni nutqning dialog, monolog, o'z-o'ziga so'zlash kabi turlaridan samarali foydalanib yoritishda ko'rinadi.

“*Badiiyat masalalari*” deb nomlangan uchinchi faslda asar badiiyatining yuksaklik darajasi yozuvchi iste'dodi bilan bog'liqligi Maqsud Qoriyevning “G'aznaviyalar” romani tahlili misolida yoritib berilgan. Muallif Mahmud G'aznaviydek tarixiy shaxsni bor murakkabligi bilan xolis, haqqoniy tasvirlashni maqsad qilib qo'yadi. Romanda “Qur'oni Karim”dan olingan oyatdagi “Barcha mavjudot bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Qilinadigan yaxshi-yomon amallar ham aniq qonun-qoida asosida o'z mukofoti va jazosini olgusidir”²³ degan so'zlarning isboti asarda tasvirlangan qahramon va personajlar taqdirida yuz ko'rsatgani yoritilgan.

Yozuvchi romanni Xurosonning poytaxtiga aylangan G'azna shahri chekkasidagi karvonsaroy tasviri bilan boshlab, kitobxonni shu orqali X–XI asrlar voqeligiga olib kiradi.

Maqsud Qoriyev Mahmud G'aznaviy bilan bog'liq o'zbek xalq og'zaki ijodidagi hikoyatlardan ham asar syujetida foydalangani holda tasvir hayotiyligini ta'minlaydi. U asarda, bir tomondan, g'oyat qattiqqo'llik bilan saltanatni boshqargan hukmdor, ikkinchi tomondan esa kambag'allarga rahm-shafqatli, adolatsizliklarga muhosasiz shaxs sifatida aksini topgan. Yozuvchi “vulgar sotsiologizmi” hukmdor sho'ro davri qarashlaridan farqli ravishda Mahmud G'aznaviyga xos kambag'alparvar, adolatparvar, ilm-fanni qadrlovchi shaxs sifatidagi fazilatlarini ham xolis baholashni maqsad qiladi.

Yozuvchi asarning o'qimishli, ta'sirchan bo'lishini ta'minlash uchun Nosiruddavla Amir Sabuqtegin nutqida turkiy xalqlarning mashhur qahramoni Afrosiyob nomi bilan atalgan Erto'nga to'g'risidagi “Mug'lar giryasi” qo'shig'ini asar kompozitsiyasiga singdirib yuborishi asar ta'sirchanligini oshirgan.

Maqsud Qoriyev qahramon va personajlar nutqidagi biror fikrni asoslash, dalillash uchun xalq maqollaridan ham unumli foydalanadi. Dissertatsiyada o'zbek xalq maqollari, hikmatli so'zlari va hadislarning qahramon hamda personajlar fikrlari aniq ifodasiga xizmat qilishi keng tahlil etilgan.

Akademik N.Karimov to'g'ri ta'kidlaganidek, “Shubhasiz, yozuvchi... Mahmud G'aznaviyning tadbirkor podshoh va ma'rifatparvar inson sifatidagi siymosini gavdalanitirish, shuningdek, u haqdagi turli mish-mishlarning soxta

²³ Қориёв М. Танланган асарлар. III жилд. Ғазнавийлар.Тарихий роман. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2006. – Б.5.

ekanligini badiiy asoslashni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘ygan”²⁴. Tadqiqotda yozuvchining epistolyar janr imkoniyatlaridan foydalanish mahorati Beruniy bilan Ibn Sino o‘rtasidagi xat almashinuvida ikki buyuk allomaning do‘stona munosabatlari, ilmiy munozaralari, bilim darajalarining tengsizligi tasvirlarida ekani tahlil etilgan.

Asarda tush motividan ham o‘rinli foydalanilgan. Birinchi tush Nosiruddin Sabuqteginning qullikka tushib qolgach ro‘y bersa, ikkinchisi Mahmud G‘aznaviyning Hindistonga yurishi paytida ro‘y bergani tadqiqotda yoritilgan.

“G‘aznaviylar” romanida yozuvchi portret tasvirlarida batafsillikdan ko‘ra qisqalik va lo‘ndalikni afzal biladi.

Maqsud Qoriyevning asar badiiy mukammalligini ta‘minlashdagi o‘ziga xosligi quyidagilarda ko‘zga tashlanadi: xalq maqollari, hikmatli so‘z va iboralardan qahramon va personajlar nutqida foydalanish orqali fikr ta‘sirchanligiga erishadi; shartlilik tamoyilidan foydalangani holda, bir qarashda, ishonarsiz tuyulgan holatlar tasvirida badiiy haqiqat yaratadi; kiyim-bosh va odatlar bilan bog‘liq detal va tafsilotlardan foydalanib, tarixiy sharoit hamda qahramon tasviridagi ta‘sirchanlik, jonlilikni yuzaga chiqaradi.

Mazkur faslda tarixiy roman janri, unda tarixiy va badiiy to‘qima obrazlarning yaratilishi haqida U.To‘ychiyev²⁵, M.Ali²⁶ fikrlari o‘rin olgan.

Ikkinchi bob **“Maqsud Qoriyev romanlarida tarixiy voqelik, qahramon va xarakter”** deb nomlanib, unda salkam bir asrlik tarixga ega o‘zbek tarixiy romaniga xos jihatlar, ularda tarixiy voqelik, qahramon va xarakter talqinidagi o‘ziga xosliklar Oybek²⁷, H.Karimov²⁸, M.Qo‘shjonov²⁹, J.Golsuarsi³⁰, N.Xotamov, B.Sarimsoqov³¹ fikrlariga tayanilgan holda yoritilgan. Bobning *“Tarixiy voqelik talqini”* deb nomlangan birinchi faslida yozuvchining mahorati badiiy asarda tasvirlanayotgan tarixiy jarayondan o‘quvchini ishontiradigan yuzlab to‘qima voqeliklar, obraz va personajlar, tafsil va tafsilotlar yaratib, kitobxon qalbiga ta‘sir ko‘rsata olishida ko‘rinadi. Yan Parandovskiy ta‘kidlaganidek, *“Adabiyot o‘z materialini hodisalar, taassurotlar, fantaziyalar, tushunchalar, his-tuyg‘ulardan izlab topadi, uni falsafadan, ilm-fandan va hatto, kerak bo‘lsa, o‘z-o‘zidan ham topa oladi”*³². Shu bois tarixiy asarga baho berishda yuqoridagi jihatni e‘tiborga olish zarurligi yoritilgan.

²⁴ Каримов Н. “Газнавийлар” романи ва унинг муаллифи ҳақида // Қориев М. Танланган асарлар. III жилд. Газнавийлар.Тарихий роман. – Тошкент: “Шарк” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2006. – Б.247.

²⁵ Туйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – Б.185.

²⁶ Муҳаммад Али. Улуғ салтанат ёзишда изланишларим // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 2021 йил 2 февраль. – 9 (4616). – Б.5.

²⁷ Ойбек. Мукамал асарлар тўплами. Ўн тўққиз томлик. Ўн тўртинчи том. – Тошкент: Фан, 1979. – Б.131.

²⁸ Карим Х. Тарихий шахс ва бадий образ. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б.66.

²⁹ Қўшжонов М. Моҳият ва бадийят. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. – Б.101.

³⁰ Голсуарси Ж. Адабиётда характер яратиш // Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида (Озод Шарафиддинов таржималари). – Тошкент: Маънавият, 2010. – Б.81.

³¹ Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б.335-336.

³² Парандовский Я. Сўз кимёси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. – Б.242.

Maqsud Qoriyevning “G‘aznaviyalar” romani turkiy xalqlarning yuksalish davri haqida bo‘lib, yozuvchi ushbu tarixiy voqelikni to‘qima hodisalar, qahramon va personajlar bilan uyg‘unlikda tasvirlaydiki, natijada kitobxon ko‘z o‘ngida davrning yaxlit manzarasi namoyon bo‘ladi. Masalan, Nosiruddavla Amir Sabuqteginning qullikka tushishi va so‘ng hokimiyatni qo‘lga kiritishi, taxtni o‘g‘li Sulton Mahmudga berishi, Mahmud G‘aznaviyning o‘zi uch bor Hindistonga yurish qilishi, keyin uning o‘g‘li Mas‘udning taxtni egallab ayanchli o‘lim topishi, Sulton Mahmudning Xorazm shohi Ma‘mun o‘ldirilgandan keyin ko‘plab olim va shoirlarni G‘aznaga, saroyga olib kelishi – barchasi tarixda bo‘lib o‘tgan voqealardir. Faqat romandagi ular o‘rtasida bo‘lib o‘tgan o‘zaro suhbatlar badiiy to‘qimaning mahsulidir.

Romanda yozuvchi Firdavsiyning “Shohnoma”si bilan bog‘liq Sulton Mahmud munosabatlariga ham yangicha qarashlar asosida yondashadi. U “Odam Atodan shu kungacha hech kim Firdavsiydek nazm aytmagan va aytolmaydi ham”, deya baho berarkan, vaziri a‘zam Xoja Ahmad Hasanakga va‘da qilingan oltin ming dirham qizil tilloni shoirga berishni buyuradi. Vaziri a‘zam esa bunga qarshi bo‘lib, Sulton Mahmuddan yashirincha shoir to‘rvasiga oltin tangalar o‘rniga kumush chaqalarni soladi. Bu ham yetmaganidek, hajviyaning yaratilishi aslida Abu Saxl Zavzoniya tegishli bo‘lib, go‘yo Firdavsiy yozib tarqatgan, degan mish-mish tarqatilgan.

Maqsud Qoriyev roman voqeligini badiiy mantiq asosida quradi, uning hayot haqiqatiga mos kelishiga ahamiyat qaratadi. Shu bois professor B.Sarimsoqov ta‘kidlaganidek, “... badiiy mantiq ijodkor ideali, ijodiy xayoli, dunyoqarashi bilan qay darajada bog‘liq bo‘lmasin, obrazlar, voqealarning badiiy talqinini, vazifasini belgilashda hayotiy mantiqqa rioya qilinishi lozim”³³. Maqsud Qoriyevning “Spitamen” tarixiy romanida Aleksandr Makedonskiyning butun dunyoni egallash, Hindistonga yurish qilish haqidagi orzulari sug‘d, skif, massaget, dax, saklar bilan bo‘lgan janglardan so‘ng barbod bo‘lgani yoritilgan.

Yozuvchi badiiy detallar, epizodik tasvir va kartinalardan mohirlik bilan foydalanib, tarixiy manzarani keng aks ettirishga erishadi.

Romanda Spitamenning o‘z xotini – Odatida tomonidan o‘ldirilish fojeasi, uning Ravshanak bilan bo‘lgan muhabbati, shuningdek, Bastavorning hanjamana qarori bilan Spitamen Iskandarga taslim bo‘lmasa, bolalarini o‘ldirish bilan tahdid etishi sabab bo‘lgani ishonarli tasvirlangan.

Dissertatsiyada Yavdat Ilyosovning “Sug‘diyona”³⁴ va Vasiliy Yanning “Qo‘rg‘on uzra gulxanlar”³⁵ romanlari orqali Spitamenning taqdiri bilan bog‘liq voqealar qiyosan tahlil etilgan.

“*Tarixiy qahramon va personajlar tasviri*” deb nomlangan ikkinchi faslda “Spitamen” romani bosh qahramoni qo‘rqmas va jasur, vatanparvar va xalqparvar, qat‘iyatli va olovqalb sug‘d sarkardasi Spitamen bo‘lib, uning tashqi va ichki qiyofasi keng hamda batafsil, turli rakurslarda, asardagi boshqa personajlar bilan u yoki bu tarzda bog‘langan holda talqin etilgani ko‘rsatib berilgan.

³³ Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2007. – Б.17

³⁴ Илёсов Я. Сўғдиёна. Тарихий роман. – Тошкент: “Шарк” нашриёт-матбаа концернининг бош тахририяти, 1994. – Б.274-275.

³⁵ Ян В. Қўрғон узра гулханлар. Роман. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б.252.

Asarning “Cho‘l qoplani” deb nomlangan qismida Sug‘diyoning bahor paytidagi tasviri fonida kitobxonni ilk bor yozuvchi Spitamen bilan tanishtiradi. Yozuvchi mahorati shundaki, uning tashqi qiyofasi orqali ichki olamini tasvirlaydi.

Romanda Oksiartning qizi Ravshanak bilan Spitamen o‘rtasidagi pinhoni, yetishish mumkin bo‘lmagan muhabbat tuyg‘ulari tasviri keng o‘rin olgan. Ilk muhabbat kechinmalari romanning “Muhabbat ma‘budasi” qismida keng yoritilgan. Adabiyotshunos H.Karimov ta’kidlaganidek, “Ijodkorda muhabbat bahonasida qahramon kechinmalarining chuqurroq tahlil etish imkoniyati tug‘iladi”³⁶.

Asarda dialog, replika va remarkalar orqali Spitamenga xos mardlik, oliyjanoblik, qo‘rqmaslik fazilatlari namoyon bo‘lsa, Sitonga xos pastkashlik, har narsani boylilik bilan o‘lchash, adovat saqlash kabi nuqsonlar ko‘rsatib beriladi. Spitamenga xos vatanparvarlik, xalqparvarlik, haqiqatparastlik, adolatlilik, oilaparvarlik, qo‘rqmaslik, shijoatlilik, jasurlik, mardlik, kamtarinlik kabi fazilatlar asar voqealari davomida izchil tasvirlana borib, uning yorqin qiyofasini yuzaga keltiradi. Spitamen tasvirida yozuvchi ideallashtirish yo‘lidan bormaydi, uni bor murakkabligi bilan tasvirlashga intiladi.

Asarda xalqiga, vataniga xiyonat qilgan sotqinlar oxir-oqibat o‘z jazosini olishi Bess, Namich taqdiri bilan bog‘liq voqealarda yoritiladi. Spitamendan o‘ch olmoqchi bo‘lgan Siton Babax tomonidan hibsxonada o‘ldirib ketilsa, Babaxning o‘zini vatan himoyachilari qovog‘ari to‘ldirilgan qopga solib o‘ldiradilar. Yoki Iskandarning o‘z eri boshini olib kelgan Odatida va uning quli Antikka bo‘lgan nafratli munosabatida ham Maqsud Qoriyevning muayyan maqsadi yashirin. Yozuvchi o‘zining Iskandarga betaraf munosabatini Spitamenning o‘ldirilishi bilan bog‘liq voqeaga uning yondashuvi tasviri orqali ifodalab, sotqinlik, xiyonat hech qachon kechirilmaydi, unga yo‘l qo‘yganlar e‘zoz topmaydilar, degan fikrni uqtirmoqchi bo‘ladi.

Maqsud Qoriyevning “Ibn Sino” romanida bosh qahramon qiyofasi butun asar voqealari davomida tasvirlanadi, xarakteriga xos jihatlar izchillik bilan yoritila boradi.

Dissertatsiyada Y.Shonazarov³⁷ ning epik tasvir, xarakter yaratish tajribasidagi uchta asosiy tendensiya haqidagi fikrlariga tayangan holda Maqsud Qoriyev “Ibn Sino” romanida realizmda ilmiylik-tarixiylik tadriji asosida asar voqeligi va uning bosh qahramoni qiyofasini aks ettirganligi yoritilgan.

Ibn Sino ichki olami, tuyg‘u-kechinmalari uning onasi Sitorabonuga, ukasi Mahmudga, qadrtoni Beruniyga, shogirdi Ma‘sumiyga yozgan xatlarida ko‘zga tashlanadi. Ushbu xatlarda Ibn Sino mehribon o‘g‘il, talabchan va mushfiq aka, maslahatgo‘y ustoz, dunyoqarashi keng olim qiyofalarida namoyon bo‘ladi. Ibn Sino islom diniga e‘tiqodi baland, tabiat hodisalariga xolis boqib, haqqoniy tahlil etuvchi, har qanday holda ham haqiqatdan so‘zlaguvchi shaxs sifatida tasvirlanadi.

Romanda Ibn Sino – Sanam, Ibn Sino – Amir Nuh Mansur, Ibn Sino – Abdusamad kitobfurush, Ibn Sino – Beruniy, Ibn Sino – Ma‘sumiy, Ibn Sino – valiahd Manzur, Ibn Sino – Foyiq, Ibn Sino – Abdumalik, Ibn Sino – Qora Turk, Ibn Sino – Abul Abbas Ma‘mun, Ibn Sino – Masihiy, Ibn Sino – Bobo Kuhiy, Ibn

³⁶ Карим Х. Тарихий шахс ва бадийий образ. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б.29.

³⁷ Шоназаров Ю. 20-30-йиллар ўзбек ва тожик романларида характер яратишнинг баъзи масалалари (киёсий ва киёсий-типологик аспектларда): Филол.фан.номз. ...дисс. – Тошкент, 1992. – Б.52-53.

Sino – Amir Qobus, Ibn Sino – Sulton Mahmud, Ibn Sino – Zarrin Gisu, Ibn Sino – Juzjoniy, Ibn Sino – Kadibonu, Ibn Sino – Amir Shamsuddavla, Ibn Sino – Farruh, Ibn Sino – Tojiumulk, Ibn Sino – Amir Alouddavla munosabatlari tasviri orqali bosh qahramon qiyofasi turli rakurslarda jilva beradi.

Romanda Ibn Sinoning ba’zi asarlari yaratilish tarixi, kechinmalari tush tasvirida ifodalansa, uning islom diniga yuksak e’tiqodi Qur’on suralarini tilovat aylagan holda vafot etish tasviri orqali yoritiladi.

Ikkinchi bobning “*Xarakterlar ifodasi*” deb atalgan uchinchi faslida Maqsud Qoriyevning turli xil qahramon va personajlar, qiyofa va xarakterlar yaratish mahorati “Spitamen” romani orqali yoritilgan.

Dissertatsiyada Aristotelning xarakterning to’rt jihati: oliyjanob, mardona, haqqoniy, izchil bo’lishi kerakligi haqidagi fikri keltirilgan³⁸. Maqsud Qoriyev o’z asarlaridagi xarakterlar talqinida ushbu fikrlarga doimo amal qilgani yoritilgan.

G’arb va Sharq adabiyotida Aleksandr Makedonskiyga bag’ishlangan, uni protatip sifatida talqin etilgan asarlar talaygina. Ammo tarixiy haqiqat uni nafaqat odil shoh, adolatli hukmdor, balki umuman ijobiy xislatga ega shaxs sifatida tasvirlashga asos bo’la olmasligini ko’rsatmoqda. Maqsud Qoriyevning “Spitamen” romanida Iskandar obrazi bor murakkabligi bilan hayotiy, tarixiy haqiqatga muvofiq aks etadi. U ba’zan adolatli hukm chiqaruvchi (Odatida va uning quliga munosabatida), dovyurak (yo’lbars bilan jangida), haqiqatni qabul qila biluvchi (Aspat so’zlariga munosabatida), shafqatsiz (Bessni jazolashida, usrushonalik va krixastaliklarga munosabatida), boylikka o’chlik (Namechga munosabatida), saroydagi har bir voqeadan ogohlik (Klit va Lisimahga munosabatida), o’zi haqidagi har qanday tanqid oldida ojizlik, uni qabul qila olmaslik (Dariyod va Romaga munosabatida) kabi jihatlarni haqqoniy yoritadi.

Dissertatsiyada romandagi yunon askari Romaning ayanchli taqdiri bilan bog’liq voqeliklar keng tahlil qilingan. Polyak adabiyotshunosi Yan Parandovskiy³⁹ fikrlariga tayangan holda M.Qoriyev ham “Spitamen” romanida turli qiyofa va xakterdagi xilma-xil personajlarni aks ettirishda ularning o’z davri kishilari ekanligini, qaysi jins, qaysi kasb, qayerlik ekanini doimo yodda tutgan holda tasvirlagani yoritilgan.

Taniqli adabiyotshunos Ibrohim Haqqul “Qo’rquvning zanjirlari ko’p. Haqsizlik va zulmdan qo’rquv, amal va amaldordan qo’rquv, jallod va josusdan qo’rquv, hokimiyat va o’limdan qo’rquv – shunga o’xshash yuzlab qo’rquv kishanlaridan ozod bo’lmagan xalqning qismati ayanchlidir. Bunday xalqni “Qo’rqmang!” deyish qo’rquvga undash bilan barobardir”⁴⁰ deya yozadi. Maqsud Qoriyevning mazkur romanidagi qahramon va xarakterlar biz qanday xalqning avlodi ekanligimizni eslatib turishi bilan qimmatlidir.

Romanda Odatida va Ravshanak obrazlari voqealar rivojida yetakchi o’rinni egallaydi. Ular harb ilmidan xabardor, qat’iyatli, jasur, qo’rqmas, chavandoz ayollar sifatida tasvirlanadilar. Faqat Ravshanak Odatida singari faol emas.

“Spitamen” romanidagi qator shaxslarga o’z dinamikasi bo’yicha murakkab obrazlar sifatida qaralishi zarur. Bular grek-makedon bosqinchilariga qarshi kurashning dastlabki bosqichida Spitamen yonida turib mardonavor jang qilgan

³⁸ Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – Б.40.

³⁹ Парандовский Я. Сўз кимёси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. – Б.274.

⁴⁰ Иброҳим Ҳаққул ҳақиқати. – Тошкент: “Book” МЧЖ, 2023. – Б.248.

Oksiart, Xoren kabilardir. Yozuvchi bu obrazlarni yaratarkan, tarixiy manbalar izidan borib, ularning hal qiluvchi janglar davrida o'z sarkardalariga, qolaversa, vatan uchun muqaddas kurash ishiga xiyonat qilganlarini jonli va ishonarli tasvirlab beradi.

Asardagi Odatida, Zo'rtosh, Tariq, Sherdor, Kamak, Siton, Babax, Bastvor, Roma, Aspat, Dariyod, Farad, Ferik, Gerakl kabi to'qima obrazlar tarixiy shaxslar va voqealarning jonli talqinida muhim o'rin tutadi.

Uchinchi bob **“Maqsud Qoriyev romanlarining syujet-kompozitsion va janr xususiyatlari”** deb nomlangan. Unda o'zbek tarixiy roman janri taraqqiyotida M.Qoriyev asarlarining o'ziga xosligi ifoda yo'sini hamda tilining soddaligida, syujetning xilma-xil turlaridan samarali foydalanishida ko'rinishi yoritilgan. Ma'lumki, “Obrazlarning o'zaro munosabatidan, kurashidan kelib chiquvchi iroda yo'nalishini, xarakter xususiyatini namoyon qiluvchi voqealar silsilasiga syujet deyiladi”⁴¹. Shuningdek, “Har qanday badiiy asarda milliy qahramon va milliy ruh ifodalangan ekan, u muayyan darajada tarixiy voqelik aks etgan syujet asosida yaratiladi. Bunday asarlarning yaratilishida tarixiylik prinsiplariga tayanish lozim bo'ladi”⁴². Yozuvchi tarixiylik tamoyiliga xos barcha jihatlardan foydalanib, portret, peyzaj, kartinalar orqali davr manzarasini o'quvchi ko'z o'ngida jonlantiradi.

Uchinchi bobning *“Syujet qurilishi”* deb nomlanuvchi birinchi faslida syujet xarakterlar namoyon bo'ladigan va hayot ziddiyatlarini umumlashtiruvchi voqealar tizimi ekani yoritilgan. Professor T.Boboyev yozganidek, “... qahramonlarning o'zaro murakkab munosabatlari asar syujetini tashkil qiladi. Qahramonlarning o'zaro munosabatlari esa voqea-hodisalarda namoyon bo'ladi”⁴³. Shu bilan birga, “Syujetda hayot uchun eng muhim bo'lgan to'qinishlar, qarama-qarshiliklar va kishilarning o'zaro munosabati aks etadi”⁴⁴. Professor U.To'ychiyev ta'kidlaganidek, “Katta proza syujeti ko'p tarmoqlidir. Syujet asosida konflikt turadi, shu sababli u tez rivojlanadi”⁴⁵. Shuningdek, “Uzoq yillik tarixga ega badiiyat mezonlarida inson qismati zamon talatoplari zahirida o'z ifodasini topib kelmoqda. Shuning uchun ham tarixiy romanlarda davr va inson fojiasining badiiy talqini syujetda mujassamlangan bo'ladi. Ma'lumki, davrning yetuk shaxslari har bir voqelik, tarixiy muhit va sharoitda shaxsiy ta'sirini bevosita o'tkazmay qo'ymaydi”⁴⁶.

Maqsud Qoriyevning xronikali syujet yetakchilik qiluvchi “Spitamen” romani Sug'diyonaning poytaxti Maroqand shahri tasviri bilan boshlanadi. Bu roman ekspozitsiyasi vazifasini o'taydi. Ma'lumki, “Ekspozitsiya o'quvchini asar voqealari kechadigan joy, voqea ishtirokchilari bo'lmish personajlar, konfliktni

⁴¹ Шукуров Н., Ҳотамов Н., Холматов Ш., Махмудов М. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б.81.

⁴² Дониёрова Ш. Истиқлол даври ўзбек романларида миллий рух ва қаҳрамон. Монография. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2011. – Б.27.

⁴³ Бобоев Т. Адабиётшуносликка кириш курси бўйича ўқув-методик қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б.107.

⁴⁴ Ҳомидий Х., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970. – Б.212.

⁴⁵ Туйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик меzonлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент: Янги асп авлоди, 2011. – Б.335.

⁴⁶ Rahimov Z. Odil Yoqubov tarixiy romanlari poetikasi: Filol.fan.d-ri(DSc) ...diss. avftoref. – Farg'ona, 2023.

yuzaga keltirgan shart-sharoitlar bilan tanishtiradi, uni syujet voqealarini idrok qilishga tayyorlaydi”⁴⁷.

Romandagi tugun kelgusida ro‘y beradigan hodisalarning harakat markazi hisoblanib, u ekspozitsiyadan kelib chiqadi va harakat, voqealar rivojini ta‘minlaydi. Undan so‘ng asarda asosiy voqea boshlanadi. Muhim voqealar rivoji tugundan keyin bo‘lib o‘tadi. Romanning “Cho‘l qoplani” qismida Dariyod kiyik ovlayotgan Spitamenga Iskandarning qo‘shin tortib Baqtriyaga kelayotgani xabarini beradi. Ana shu xabar bilan tugun yuzaga keladi.

“Spitamen” romanidagi kulminatsiya Dionis bayrami arafasida Maroqandda saroydagi bazm paytida mastlik oqibatida Iskandar o‘zining erkatoiy va jasur mulozimi Klitni o‘ldirib qo‘yib, so‘ng chekkan iztiroblarida ko‘rinadi. Shuningdek, kulminatsiya Ravshanakning Iskandarga turmushga chiqqanini eshitgandan keyingi Spitamen ruhiy holatida namoyon bo‘ladi.

Asardagi harakat va voqealarda o‘z rivojini topgan konfliktning hal bo‘lishi xarakterlar kurashining yakunlanishi hamda nihoyasiga yetishida ko‘zga tashlanadi. “Spitamen” romanidagi yechim Odatidaning Spitamenning boshini olib quli bilan birgalikda Iskandarga olib borib berishi, Datafarning do‘sti jasadi ustida faryod chekishi, elning bu fojeadan qattiq iztirobi orqali ot – Qorasochning egasi maqbarasi qoshida cho‘kkalab uzoq turib qolishi tasvirida yoritiladi.

Retrospektiv syujet asosidagi “Ibn Sino” romanida g‘arbda Avitsenna nomi bilan mashhur allomaning melodiy 998-yildan to 1037-yilgacha bo‘lgan o‘ttiz to‘qqiz yillik faoliyati, hayoti yoritilgan.

Tarixiy-biografik roman janri talablaridan kelib chiqib, yozuvchi asar syujetini shunga muvofiq qurishi, buyuk alloma hayotini qadam-baqadam aks ettirishi zarur edi. Buning uchun XI–XII asrlar O‘rta Osiyo xalqlarining ilm-fani, tarixi, ijtimoiy muhiti, urf-odatlarini, dunyoqarashi, tili haqida ma‘lumot berish talab etilardi. Asar voqealari aksariyat olimlar bilan bog‘liqlikda kechgani bois, u davrning ilm-fanidan ham xabardor bo‘lish kerak edi. Shu bois yozuvchi Ibn Sinoning ikki yuz saksondan oshgan, ammo hozirgacha yetib kelgan bir yuz oltmish asari haqida ham ma‘lumotlarga ega bo‘lgan. Yozuvchi mahorati shundaki, u asar voqealari davomida bosh qahramon – Ibn Sino qiyofasidagi serqirra jihatlarni izchillik bilan yorita boradi.

Bobning “*Kompozitsion yaxlitlik*” deb nomlangan ikkinchi faslida Maqsud Qoriyevning qahramon va xarakter yaratishdagi betakror uslubi asarlaridagi kompozitsion o‘ziga xoslikni yuzaga keltirishi yoritilgan. Ma‘lumki, “Badiiy asar kompozitsiyasi deganda biz syujet bo‘laklarining, shtrix va detallarning, badiiy-tasviriy vositalarning yozuvchi g‘oyaviy-estetik maqsadiga ko‘ra muayyan tartibda joylashtirilishini anglaymiz”⁴⁸. Professor A.Rasulov ta‘kidlaganidek, “tarixiy romanlarda yozuvchi falsafasi, romaniy tafakkurning aks etishi murakkabroq kechadi. Aniqrog‘i, bosh qahramon – asosiy xarakterlar falsafasi yozuvchi konsepsiyasi, tafakkuri bilan uzviy birlikda, bog‘liqlikda o‘z ifodasini topadi”⁴⁹. “Spitamen” romanida aks etgan davrning juda qadimiyligi, mavzuga oid

⁴⁷ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б.356.

⁴⁸ Шукурув Н., Ҳотамов Н., Холматов Ш., Махмудов М. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б.89-90.

⁴⁹ Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2007. – Б.70.

materiallarning kamligi, borlarining ham yunon tarixchilari tomonidan aksariyat hollarda bir tomonlama yozilganligi yozuvchi oldiga murakkabliklarni keltirib chiqargan. Shu bilan birga, ijodkorning birlamchi manbalar bilan tanishish imkoniyatining cheklangani, asosan, yunon tilidan ruschaga va rus tili orqali o'zbek tiliga qilingan tarjimalardan foydalanilganligi ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Lekin Maqsud Qoriyevning chuqur izlanishlari, ijodiy fantaziyasi, mahorati o'zining yuqori samarasini berganligi asar mazmunida, voqealar talqinida, kompozitsion yaxlitlikda yaqqol ko'rinib turadi.

Romanda kompozitsion qoliplash usuliga yaqin bo'lgan qahramon va personajlarni hikoyat hamda masal so'zlatishdan ham foydalanib, asarning asosiy pafosini yoritishga erishganligini ko'rish mumkin. Yozuvchi qahramonlar nutqi vositasida hikoya ichida hikoya berish orqali asosiy harakat va voqelikni to'xtatib yoki bundan biroz chekinib, kompozitsion betakrorlikka erishadi. Masalan, Dariyodning "Avesto"dan naql qilgan hikmatlari, hikoyatlari yomonlikning jazosi va ezgulikning g'alabasi muqarrarligini so'zlasa, Sug'diyonada keng tarqalgan, keyinchalik hind xalq eposi "Kalila va Dimna"⁵⁰da o'rin olgan "Marvarid teruvchi" haqidagi hikoyat umrni e'zozlash, oliyjanoblik masalalari haqida fikr yuritadi.

M.Qoriyev "Spitamen" romanida shtrix va detallardan foydalanib asarning g'oyaviy-estetik maqsadini ifodalashga erishgan. Masalan, Iskandar Maroqand atrofidagi o'rmonga ovga chiqadi. Uning ro'parasidan bahaybat Turon yo'lbarisi chiqadi. Bir-birlariga bir muddat termulib qolgan inson va hayvonning holati ko'zlar portret-detali vositasida yoritiladi.

Adabiyotshunos I.Yoqubov ta'kidlaganidek, "Keyingi yillar o'zbek romanlarida ruhiy tasvir va tahlil ancha kuchaydi"⁵¹. Maqsud Qoriyev "Ibn Sino" romanida ham buyuk vatandoshimiz hayoti va ilmiy faoliyati, u yashagan davr voqealarini izchil aks ettirib, makon va zamonning cheksizligini sig'dirishda muallif tavsifi, ichki va tashqi monolog, dialog, xotira, lirik chekinish, retrospeksiya, ruhiy iztirob, tush ko'rish, o'z-o'zini baholash kabi usullardan samarali foydalanadi.

Dissertatsiyada "Ibn Sino" romani kompozitsiyasida peyzaj tasviri, xat motivi, kartinalarning o'rni tahlil etilgan.

Bobning "*Janr xususiyatlari*" deb nomlangan uchinchi faslida muttasil yangilanishda bo'lgan roman janrining keng imkoniyatlaridan samarali foydalanishdagi Maqsud Qoriyev mahoratiga xos jihatlar yoritilgan. Dissertatsiyada tarixiy roman janriga xos xususiyatlar, istiqloq yillarida undagi yangicha yondashuv va yangilanishlar S.Mirvaliyev⁵², Sh.Doniyarova⁵³, P.Shermuhamedov⁵⁴, B.Karim⁵⁵ fikrlari asosida yoritilgan.

V.G.Belinskiy "Voqelik o'z-o'ziga go'zal, lekin shakliga ko'ra emas, mohiyatiga, unsurlariga, mazmuniga ko'ra go'zaldir. Bu jihatdan voqelik tuproq va

⁵⁰ Калила ва Димна. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010.

⁵¹ Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. Монография. – Тошкент: Nurafshon business, 2021. – Б.81.

⁵² Мирвалиев С. Абдулла Қодирий, Ҳаёти ва ижоди. – Тошкент: Фан, 2004. – Б.74-75.

⁵³ Дониярова Ш. Истиқлол даври ўзбек романларида миллий руҳ ва қаҳрамон. Монография. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2011. – Б.9.

⁵⁴ Шермухамедов П. Тарихчи ва ижодкор нигоҳи // Шарқ юлдузи. – 1977-йил, 3-сон. – Б.205.

⁵⁵ Баҳодир Карим. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. – Тошкент: Фан, 2006. – Б.51-52.

ruda uyumidagi sof, lekin tozalanmagan oltindir, fan va san'at voqelik oltinini tozalaydi, uni nafis shaklga soladi"⁵⁶ deya yozgan edi. Maqsud Qoriyev ham asar bosh qahramoni, sug'd elining jasur o'g'loni Spitamenning el-yurt ozodligi yo'lida jon fido etishdek dolg'ali kurash yo'lini o'sha davrning tarixiy manbalari asosida ta'sirchan ifodalashga erishdi. Yozuvchi tarixiy voqelikdan chekinmagan holda to'qima voqelik (Spitamen va Ravshanak muhabbati)ni ham asar qatiga singdiradi.

"Spitamen" romanida Iskandar, Oksiart, Xoriyen, Namich, Ravshanak, Dariyovush, Bess, Lisimax, Klit, Kreter, Andramax, Menedem, Artabaz, Farnuh, Aminta, Nearx, Ptolemey, Koren kabilar tarixiy shaxslar bo'lsa, Odatida, Siton, Datafarn, Xamuk, Sherdor, Dariyod, Zo'rtosh, Kamak, Ferik, Roma, Gerakl, Babax, Ferik, Kobar, Chinora, Nabarzan kabilar to'qima obrazlardir.

Maqsud Qoriyev roman janr xususiyatlaridan kelib chiqib Spitamen va Iskandar qo'shinlari o'rtasidagi jang kartinalarini batafsil tasvirlaydi. Yozuvchi Spitamen, uning sarkarda va jangchilari ruhiyati tasvirida ko'tarinki ifoda usulini qo'llasa, Iskandar hamda uning getayra va lashkarboshilari kechinmalarida tushkunlikni ko'rsatib beradi.

Yozuvchi "Spitamen" romanida xronikal syujetdan foydalansa, "Ibn Sino"da retrospektiv syujetga murojaat qilish orqali romanning janr xususiyatlaridan kelib chiqib ifodaning ta'sirchan imkoniyatini yuzaga chiqaradi. Shuningdek, "Spitamen"da jang epizodlari, kartinalari tasviriga ko'proq urg'u bersa, "Ibn Sino"da tarixiy-biografik roman janriga xos alloma hayot yo'lida kechgan turli voqealar, konflikt va sarguzashtlar, kechinmalar tasviriga keng o'rin beradi.

Dissertatsiyada "Ibn Sino" romanida yozuvchining qahramon va xarakterlar, davr voqeligi va personajlar talqinidagi mahorat qirralari keng yoritilgan.

Romanda yozuvchi falsafiy-publitsistik chekinishlardan ham samarali foydalanib, monologik nutq imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi. Yozuvchi xalq og'zaki ijodidagi qarg'ishlarni personajlar nutqiga singdirib yuboradi va qahramonlar qiyofasi talqinidagi jonlilikni, hayotiylikni ta'minlaydi.

XULOSA

1. Maqsud Qoriyev "Spitamen" romanini yaratishda Kvant Kursiy Rufning "Aleksandr Makedonskiy yurishlari", Kvint Eppiy Flaviy Arrianning "Iskandarning harbiy yurishlari", Plutarxning "Iskandar", Diodorning "Tarixiy kutubxona", Qur'oni Karim, eng qadimgi tarixiy-adabiy yodgorlik "Avesto" hamda qadimgi sharq xalqlari tarixiga oid og'zaki manbalar, sharq mumtoz adabiyoti va xalq og'zaki ijodidagi doston, afsona hamda rivoyatlarni o'rganib, ta'sirlandi. Shu bilan birga, u Spitamen obrazini yaratishda V.Yanning, Y.Ilyosovning, M.Ali, M.Osim, Isfandiyorning roman, qissa, hikoya va turkum she'rlari bilan tanishdi va talqindagi o'ziga xoslikka erishdi.

2. Yozuvchi "Ibn Sino" romanida ulug' allomaning nafaqat tabobat, balki astronomiya, geometriya, kimyo fanlaridan ham yaxshigina xabardor bo'lganini, hatto she'rlar yozganini tasvirlash orqali serqirra ijodkor, yuksak iste'dod sohibi ekanini ishonarli talqin etadi. Uning tuyg'u-kechinmalari, xarakteri, qiyofasi monolog orqali yoritiladi. Asardagi bozor manzaralari, kitob rastalari, turli xil

⁵⁶ Белинский В.Г. Адабий орзулар. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. – Б.101.

do'konlar tasviri davrning yaxlit manzarasini yuzaga keltiradi. Maqsud Qoriyev uslubiga xos jihat shuki, u badiiy detal, portret va peyzajdan samarali foydalanib falsafiy fikrning ta'sirchan ifodasini, talqin hayotiyligini, ifoda haqqoniyligini ta'minlaydi.

3. "Ibn Sino" romanida yozuvchi uslubi uchun xos jihat – tasvir obyektini izchil, keng va batafsil tasvirlash orqali yaxlit manzara yaratishdir. Tasvirdagi kartinalar o'zaro bog'lanib, davrning yaxlit tasvirini yuzaga keltirish bilan birga kitobxonni qahramon hamda personajlarning yashash tarziga olib kirish, tuyg'u-kechinmalari bilan oshno etish uchun o'ziga xos vosita bo'lib xizmat qiladi.

4. "G'aznaviyalar" romanining Xurosonning poytaxti G'azna shahri chekkasidagi karvonsaroy tasviri bilan boshlanishi to'kin-sochinlik, ilm-fan barqurgan davr talqinini yuzaga keltiradi. Yozuvchi Mahmud G'aznaviy bilan bog'liq xalq og'zaki ijodidagi mavjud hikoyatlarni asar voqeligiga singdirib, unga bo'lgan xolis, haqqoniy, yangicha munosabatni yuzaga keltiradi. Qahramon va personajlar tilining sodda, hozirgi so'zlashuv uslubiga yaqinligi va ravonligi asar voqealarining hayotiy, jonli ifodasini ta'minlaydi.

5. Maqsud Qoriyev tarixiy romanlari uchun xos jihat tarixiy qahramon va voqelik bilan bir qatorda ko'plab to'qima hodisalar, obraz va personajlar, tafsil va tafsilotlar yaratishida ko'rinadi. Yozuvchi asarlari voqeligini badiiy mantiq asosida quradi va uning hayot haqiqatiga mos bo'lishiga asosiy e'tiborni qaratadi. Sulton Mahmud va Firdavsiy munosabatlari talqinida ushbu hol ko'zga tashlanadi.

6. "Spitamen" romanida Spitamenning tashqi qiyofasi uning ichki olamiga uyg'un tasvirlanadi. Spitamen va Ravshanak o'rtasidagi pinhoniy muhabbat esa Odatidaning rashk tufayli erining boshini olib Iskandarga olib borib berish voqeasini asoslashga xizmat qiladi. Yozuvchi mahorati shundaki, to'qima muhabbat hodisasi vositasida badiiy haqiqatni yuzaga keltiradi. "Ibn Sino" romanida esa yozuvchi bosh qahramon – Ibn Sino qiyofasini asar voqealari davomida birma-bir tasvirlab boradi. Serqirra iste'dod sohibi, tib ilmining bilimdoni, ulug' alloma qiyofasini ilmiy asarlari, she'rlarini asar voqealarida keltirish bilan haqqoniy, jonli aks ettirishga erishadi.

7. Xronikali syujet asosidagi "Spitamen" romanida Maroqandning gavjum, to'kinlik to'la yurt tasviri bilan boshlanishi yurtga vayronalik, kulfat olib kelgan grek-makedon bosqinchilariga salbiy munosabatni ifodalashga xizmat qilgan. Retrospektiv syujet asosidagi "Ibn Sino" romanida kitob rastasi tasviri ilm-fan taraqqiy etgan yurt qiyofasining yoritilishiga xizmat qiladi. Bu asardagi bosqinchilik urushlarining talonchilikka, zo'ravonlikka, vayronkorlikka, minglab insonlar qonining to'kilishiga olib kelishining ta'sirchan ifodasiga xizmat qiladi.

8. Maqsud Qoriyev tarixiy romanlarida syujet va uning elementlarini, chizgi va tafsillarni, badiiy-tasviriy vositalarni muayyan maqsadga ko'ra joylashtiradi. Yozuvchi "Spitamen" romanida kompozitsion qoliplash usuliga yaqin bo'lgan qahramon va personajlarni hikoyat hamda masal so'zlatish usulidan foydalanib, asosiy pafosning ta'sirchan ifodasiga erishadi. Hikoya ichida hikoya keltirish orqali asosiy voqelik bayonidan chekinib, voqelikdagi xilma-xillikni hamda kompozitsion betakrorlikni yuzaga keltiradi.

9. Yozuvchi qahramonlar va personajlar nutqiga ham maqollar, qo'shiqlar, topishmoqlar, hikmatli so'z va iboralarni singdirib, shu orqali turlicha qiyofalarni yaratadi. "Ibn Sino" romanida tavsif, ichki va tashqi monolog, dialog, xotira,

retrospeksiya, ruhiy iztirob, tush ko‘rish, o‘z-o‘zini baholash, ruhiy konfliktdan samarali foydalanib, voqelik va hodisalarning ta’sirchan, hayotiy va jonli talqinini yaratadi. Xat usuli vositasida Ibn Sinoning turli rakurslardagi qiyofasi namoyon bo‘ladi.

10. Maqsud Qoriyevning “Spitamen” romanidagi Spitamen, Iskandar, Oksiart, Xoriyen, Namich, Ravshanak, Doriyovush, Bess, Lisimax, Klit, Krater, Andremax, Menedem, Artabaz, Farnux, Aminta, Nearx, Ptolemey, Karan kabilar tarixiy shaxslar bo‘lsa, Odatida, Siton, Datafarn, Xamuk, Sherdor, Dariyod, Zo‘rtosh, Kaman, Tariq, Roma, Gerakl, Babax, Ferik, Kabar, Chinora, Nabarzan, Bastvor, Aspat, Farad kabilar to‘qima obrazlardir. “Ibn Sino” romanidagi Sanam, Qora Turk obrazlari to‘qima bo‘lib, tarixiy-biografik roman janri imkoniyatlaridan keng foydalanib, yozuvchi Qur‘on oyatlari, afsona va rivoyatlarni asar syujetiga singdirib yuboradi. Tarixiy qahramon va tarixiy voqelikning hayotiy, ta’sirchan tasvirini yuzaga keltiradi.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREE
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 AT FERGHANA STATE UNIVERSITY**

FERGHANA STATE UNIVERSITY

MAMUROVA MUSHTARI MAKHAMMADJANOVNA

**THE PROBLEM OF STYLE AND CHARACTER IN THE NOVELS OF
MAKSUD KORIYEV**

10.00.02 – Uzbek literature

**ABSTRACT
of dissertation for doctor of philosophy (phd) in PHILOLOGICAL sciences**

Ferghana – 2025

The theme of doctor of philosophy (PhD) dissertation is registered by Supreme Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under the number B.2022.2.PhD/Fil2448.

The dissertation was completed of Ferghana State University.

The abstract of the dissertation is posted in three (Uzbek, English and Russian (Resume)) languages on the website of the Scientific Council (www.fdu.uz) and on the website «Ziyonet» Information-educational portal (www.ziyonet.uz)

Scientific supervisor:

Sabirdinov Akbar Gofurovich
Doctor of Philological sciences, professor

Official opponents:

Rasulova Umida Yuldosh kizi
Doctor of Philological sciences, professor

Karimov Halim Urinovich
Candidate of sciences, docent

Leading organization:

Jizzakh State Pedagogical University

Defense of the Dissertation will take place on « 2 » 10 2025, at 11⁰⁰ p.m. at a meeting of Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 under Ferghana State University (Address: 100151, Ferghana city, B.Marg'inoniy street, apart.105 Tel.: (99873) 244-57-82; fax: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertation could be reviewed information-resource center of Ferghana State University (registration number 572). Address: 19. Murabbiylar Street, Ferghana, 100151, Tel.: (99873) 244-71-28.

Dissertation abstract sent out on « 20 » 03 2025.

(Mailing report number 47 on « 20 » 03 2025).



G.Z.Rozikova
Chairman of Scientific Council Awarding scientific degree, Doctor of Philological sciences, Professor

M.T.Abdupattoyev
Secretary of Scientific Council Awarding scientific degree, Doctor of Philological sciences, Professor

Z.R.Rakhimov
Chairman of Scientific Seminar at the Scientific Council awarding scientific degree, Doctor of Philological sciences, Docent

INTRODUCTION (Annotation of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)

The relevance and necessity of the dissertation topic. It is important to highlight the issues of truthfulness, artistic fiction, historicity and modernity in the depiction of the era and heroes in historical novels in the world literary criticism, thereby studying the creative skill and image of the author in the interpretation of style and character. Historical works that objectively and truthfully cover the lives and activities of folk heroes and great scholars of different eras are of practical importance in vividly reflecting the social world picture of a particular era, as well as in clarifying the real truth about historical figures.

In the world literary criticism, a particular attention is increasing to the scientific and theoretical study of the issues of stylistic originality, tradition, historical reality, depiction of historical heroes, characters, artistry, plot, composition in novels along with the study of creative influence and individuality. Comparing the general and distinguishing aspects of the creation of the image of a historical hero or scholar by different creators develops the need not only to draw an objective conclusion about a specific historical figure and period, but also to theoretically illuminate the diversity in the style and skill of different creators. In Uzbek novels, creative influence, stylistic originality, character, artistic skill, genre perfection and creative experience are scientific and theoretical issues that need to be studied in literary studies.

In modern Uzbek literary studies, a number of works are being carried out to study the work of Uzbek novelists of the second half of the 20th century – the beginning of the 21st century based on new approaches. This, in turn, creates the need for in-depth study of the creative worldview, creative laboratory, sources of influence of their works, specific aspects of their style, and important features of character creation skills. After all, “Literature is the heart of the people, a mirror of their spirituality. In today’s difficult times, it is necessary to use the influential power of literature to find a way to the hearts of people and inspire them to noble goals”¹. The study of the unique style and secrets of the artistic skill of Maqsud Koriyev, who has taken a special place in Uzbek literature with a series of historical novels, is an urgent and necessary issue to be studied. In his works, he synthesized the mature traditions of Uzbek folk oral literature, oriental classical literature and world novelism, effectively using the possibilities of the genre. This aspect requires the study of the issue of style and character in Maqsud Koriyev's novels, clarifying the problems of historical truth and artistic truth, which determines the relevance and necessity of the research topic.

The given dissertation has been fulfilled according to the requirements of the following laws as PD-60 “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026” dated January 28, 2022; PD-5847 “On approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030” dated October 8, 2019; PD-6084 “On measures to further develop the Uzbek language and improve language policy in our country” dated October 20, 2020;

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий боғида барпо этилган Адиблар хйёбонининг очилишида сўзлаган нутқи // Халқ сўзи. – 2020 йил 21 май. – № 106 (7608).

PR-3775 “On additional measures to improve the quality of education in higher education institutions and ensure their active participation in the comprehensive reforms being implemented in the country” dated June 5, 2018; Resolution of the Republic of Uzbekistan 576 “On Science and Scientific Activity” dated October 20, 2019 as well as other regulatory and legal documents related to this activity.

The appropriateness of the research to the prior directions of the development of science and technologies. Dissertation research was carried out in accordance with priority direction I. “Formation of a system of innovative ideas and ways to implement them in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an information society and a democratic state”.

Scope of study of the problem. The genre features of the Uzbek novel, its stages of development, and individual stylistic issues in it have been studied by such literary critics as I.Sulton, M.Koshjonov, O.Sharafiddinov, S.Mamajonov, N.Karimov, U.Normatov, S.Mirvaliyev, A.Rasulov, H.Boltaboyev, A.Rahimov, D.Turayev, H.Umurov, D.Kuronov, Y.Solijonov, A.Sabirdinov, Z.Pardayeva, Sh.Doniyarova, Sh.Tuychiyeva, Z.Rahimov². Also, foreign and Russian literary critics such as F.G.Hegel, H.Ortega-i-Gasset, R.Yakobson, Y.N.Tinyanov, B.A.Eichenbaum, M.M.Bakhtin, M.B.Khrapchenko, D.Zatonsky, E.M.Meletinsky, V.V.Kozhinov, V.V.Vinogradov, A.N.Veselovsky, Y.Borev³ have extensively explored the issues of historicity, art, and language in the novel.

² Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986; Қўшжонов М. Ўзбек романчилигининг ривожланиш босқичлари ва жанр хусусиятлари // Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдик. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1991. – Б.299-382; Қўшжонов М. Ойбек маҳорати. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1965; Қўшжонов М. Моҳият ва бадиият. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977; Шарафиддинов О. Биринчи мўъжиза. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979; Шарафиддинов О. Оламнинг қалби. – Тошкент: Маънавият, 2014; Шарафиддинов О. Танланган асарлар. – Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2019; Мамажонов С. Услуг жилolari. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972; Каримов Н. Ойбек. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985; Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008; Каримов Н. Уч буюк сиймо: Абдулла Қодирий. Чўлпон. Ойбек. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2019; Normatov U. Ижодкорнинг дахлсиз дунёси. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2008; Normatov U. Қодирий мўъжизаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010; Normatov U. Танланган асарлар. – Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси ва таҳририяти, 2021; Мирвалиев С. Ўзбек романи. – Тошкент: Фан, 1969; Мирвалиев С. Роман ва замон. – Тошкент: Фан, 1983; Мирвалиев С. Абдулла Қодирий. – Тошкент: Фан, 2004; Расулов А. Янги замон – янги қаҳрамон. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978; Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2007; Болтабоев Х. Наср ва услуб. – Тошкент: Фан, 1992; Раҳимов А. Ўзбек романи поэтикаси (сюжет ва конфликт): Филол.фан.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 1993; Тўраев Д. Давр ва ижод масъулияти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004; Умuroв Х. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Шарқ, 2002; Солижонов Й. Ҳақиқатнинг синчков кўзлари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009; Солижонов Й. Кўзгудаги ҳаёт. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2013; Солижонов Й. Мўъжизалар сеҳри. – Тошкент: Adib, 2013; Сабирдинов А. Маънавият ва маърифат чашмалари. – Тошкент: Akademnashr, 2016; Пардаева З. Ҳозирги ўзбек романчилигининг таракқиёт тамойиллари: Филол.фан.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2003; Дониёрова Ш. Истиқлол даври ўзбек романларида миллий руҳ ва қаҳрамон муаммоси: Филол.фан.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2012; Тўйчиева Ш. Чўлпоннинг “Кеча ва кундуз” романида ижодкор дунёқараши ва бадиий услуб муаммолари: Филол.фан.номз. ...дисс. – Тошкент, 2006; Rahimov Z. Odil Yoqubov tarixiy romanlari poetikasi: Filol.fan.d-ri(DSc) ...diss.avtoref. – Farg‘ona, 2023.

³ Гегель Ф.Г. Эстетика. Биринчи жилд. Рус тилидан М.Абдуллаев таржимаси. – Фарғона, 2011; Хосе Ортега-и-Гассет. Мысли о романе // В ин: Эстетика. Философия культуры. – М.: Искусство, 1991; Якобсон Р. Работы по поэтике. – М.: Прогресс, 1987; Эйхенбаум Б.А., Тынянов Ю.Н. Русская проза. – Л.: Академия, 1926; Эйхенбаум Б.А. О прозе. О поэзии. – М.: Худ. литер., 1986; Бахтин М.М. Эпос и роман // Вопросы литературы. – 1970. – №1. – С.95-122; Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Сов. писатель, 1975; Затонский Д. Искусство романа и XX век. – М.: Худ. литер., 1973; Мелетинский Е.М. Введение в историческую поэтику эпоса и романа. – М.: Наука, 1986; Кожин В.В. Происхождение романа. – М.: Сов.писатель, 1963; Виноградов В.В. О языке художественной

In Uzbek historical novels, issues such as character and hero, plot, composition, spirituality, and art were explored by A.Rahimov, H.Karimov, G.Imomova, Sh.Isayeva, A.Nosirov, G.Murodov, U.Jurakulov, A.Alimbekov, I.Yakubov, K.Yolchiyev, M.Kuchkarova, O.Akbarov⁴.

In Uzbek literary criticism, the novels of Maksud Koriyev have been analyzed in the scientific studies of F.Khajiyeva and A.Allabergenov. In particular, in F.Khajiyeva's dissertation, comparative analyses of the genre features of the biographical novel of the American writer Irving Stone "Pains and Joys", "The Desire for Life" and Uzbek writers Maksud Koriyev's "Avicenna", Nodir Normatov's "The Last Will of Rozi Chorin" have been conducted, while A.Allabergenov's study, the interpretation of the image of Beruniy in Maksud Koriyev's novels "Avicenna", "The Ghaznavids" was studied⁵.

From the above, it can be seen that in Uzbek literary criticism, the style and character, hero's spirituality, plot and compositional features, historical truth and artistic fiction in Maksud Koriyev's novels have not been studied monographically.

The connection of the dissertation topic with the research plans of the higher educational institution where the dissertation was completed. The dissertation was conducted within the framework of the scientific research plan of Fergana State University in the direction of "Problems of poetics".

The aim of the research is to analyze the significance of Maksud Koriyev's historical novels in Uzbek literature of the second half of the 20th – early 21st centuries, to shed light on the writer's style and artistic skills in creating heroes and characters and to identify the development trends of this genre of novel.

The tasks of the research:

